



THE IMPORTANCE OF THE USE OF NATIONAL VALUES AND HUMAN QUALITIES IN THE FORMATION OF THE WORLDVIEW OF PRESCHOOL CHILDREN

Dilshoda Sh. Davlatova

Master's student

Termiz State Pedagogical Institute

Termiz, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: National values, customs, traditions, fairy tales, riddles, narratives, parables, human qualities.

Received: 20.03.23

Accepted: 22.03.23

Published: 24.03.23

Abstract: National values are a complex social and spiritual phenomenon, which covers the language, culture, history, customs, traditions, total material and spiritual wealth, all aspects of the economic, socio-political life of the nation.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISHDA MILLIY QADIRYATLARDAN FOYDALANISH VA INSONIY FAZILATLARINING AHAMIYATI

Dilshoda Sh. Davlatova

Magistratura talabasi

Termiz davlat pedagogika instituti

Termiz, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Milliy qadiryat, urf-odat, an'ana, ertaklar, topishmoqlar, rivoyatlar, masallar, insoniy fazilatlar.

Annotatsiya: Milliy qadiryatlar murakkab ijtimoiy - ruhiy hodisa bo'lib, u millatning tili, madaniyati, tarixi, urf-odatlari, an'analari, jamiki moddiy va ma'naviy boyliklarini, iqtisodiy, ijtimoiy- siyosiy hayotining barcha tomonlarini qamrab oladi.

ЗНАЧЕНИЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ НАЦИОНАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ И ЧЕЛОВЕЧЕСКИХ КАЧЕСТВ В ФОРМИРОВАНИИ МИРОВОЗЗРЕНИЯ ДОШКОЛЬНИКОВ

Дилшода Ш. Давлатова

студент магистратуры

Термезский государственный педагогический институт

Термез, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Национальные ценности, обычаи, традиции, сказки, загадки, повести, притчи, человеческие качества.

Аннотация: Национальные ценности представляют собой сложный социальный и духовный феномен, который охватывает язык, культуру, историю, обычаи, традиции, совокупность материальных и духовных богатств, все стороны экономической, общественно-политической жизни нации.

KIRISH

Ma'naviyati yuksak shaxslar yurtni tanitadi, shaxsni esa uning ma'naviy qiyofasi tanitadi. Ma'naviyat–tarbiyadan boshlanishi va ta'lim–tarbiyasiz ma'naviyatning bo'lmasligi barchaga ayon haqiqatdir. Milliy pedagogika asoschilaridan biri Abdulla Avloniyning “Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot – yo halokat, yo sadoqat, yo falokat masalasidir!” degan so'zlari fikrimizga dalil bo'ladi.

Inson fazilatlari - bu shaxsni barqaror aqliy shakllanishi, jamiyatga ta'sir qiladi, faol ish olib boradi, boshqa odamlar bilan muloqot qiladi. Insonni inson sifatida tavsiflash uchun, u o'zini xulq-atvorini namoyon qilishi kerak, chunki u o'zini boshqalar bilan harakat va harakatlar orqali ochib beradi. Insoniy fazilatlarni maktabgacha yoshdagi bolalar ongiga singdirishda uning o'ziga xos xususiyatlarini alohida qayd qilish maqsadga muvofiqdir. Maktabgacha yoshdagi bolalarning ongiga insoniy fazilatlarni singdirishda bolalarga bu borliqni borlig'icha his qilishni o'rgatish orqali insoniy fazilatlar tarkib toptiriladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarga insonga xos bo'lgan amallarni o'rgatishda birinchi navbatda bevosita ularning faoliyatiga e'tibor qaratish kerak. Uni amalga oshirishda, har bir maktabgacha yoshdagi bolalarda bunyodkor g'oyalarni to'liq anglab yetgan bo'lishi va bu yo'lda tinmay mehnat qilishi kerak bo'ladi. Bu o'z navbatida shaxs ma'naviy kamoloti bilan bog'liq masalalar bo'lib, u bugungi kunning eng dolzarb muamollaridan biri hisoblanadi.

ASOSIY QISM

Yoshlarni insoniy fazilatlar bilan qurollantirishda umumbashariy qadriyatlarga asoslangan samarali tashkiliy pedagogik shakl va vositalarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish masalasini ishlab chiqish kerak. Ana shunday ong faoliyati jarayonlarda, insonlar o'zligini anglab boradi va o'zi uchun qadrlil bo'lgan moddiy va ma'naviy olamni qalban his qiladi. Shuning uchun ham ularni insonlar qadriyat deb atashadi. Qadriyat o'zi nima, unga ilmiy adabiyotlarda qanday ta'riflar berilgan va uning tuzilmalari nimalardan iborat degan savollarga birin-ketin javob berib o'tish maqsadga muvofiqdir. Falsafa qomusiy lug'atda qadriyatga quyidagicha ta'rif berilgan. “Qadriyat – voqelikdagi muayyan hodisalarniing umuminsoniy, ijtimoiy –axloqiy, madaniy-ma'naviy ahamiyatini ko'rsatish uchun qo'llaniladigan falsafiy – sotsiologik va aksiologik tushuncha. Jamiyat, inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan barcha narsa, hodisa va voqealar: erkinlik, ezgulik, tenglik, tinchlik, haqiqat, ma'rifat, madaniyat, moddiy va ma'naviy boyliklar, obida-yodgorliklar, go'zallik, axloqiy xislat hamda fazilatlar, an'ana, urf-odat, udum va bayram hisoblanadi.

Qadriyatlar umumbashariy, umuminsoniy, milliy, mintaqaviy, shaxsiy bo'lishi mumkin. Qadriyatlar, ijtimoiy –tarixiy taraqqiyot mahsuli sifatida, o'z tarixiy ildizi, rivoji, vorislik jihatlariga ega tushuncha bo'lib, avvalo, ishlab chiqarish, mehnat sohasidagi faoliyat, insonlar o'rtasidagi munosabatlar uchun foyda keltiradigan narsalar, hodisalar, hatti-harakatlar majmuasi sifatida yuzaga kelib, ayrim kishilar, ijtimoiy guruhlar faoliyati, hatti-harakatini ma'lum yo'nalishga buradigan, tegishli me'yorga soladigan ma'naviy hodisaga aylanadi va aylanmoqda. Inson, butun umri davomida, son-sanoqsiz qadriyatlar olamida yashaydi. Insoniyatni o'rab turgan borliq, tabiiy va ijtimoiy atrof-muhit, tirik va notirik tabiatning eng muhim tomonlarini ifodalaydigan qadriyatlar umumbashariy xususiyatga egadir. Bunday qadriyatlar jamiyat uchun hech qachon o'z ahamiyatini yo'qotmaydigan, abadiy, mutloq va muqaddas qadriyatlardir.

Odamzodning yashashi, umrguzoronligi, farzandlari hayotining ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, madaniy ma'naviy va ahloqiy sohalariga taalluqli bo'lgan umumjamiyat miqyosidagi qadriyatlar butun insoniyat va jamiyatga tegishli bo'lganidan, umuminsoniy qadriyatlar deb ataladi.

Shunday qadriyatlar ham mavjudki, ular muayyan bir millat, elat va xalq hayoti, turmush tarzi, ularning turmush tarzi, ularning o'tmishi kelajagi va yashayotgan ijtimoiy muhiti bilan bog'liqdir. Ular milliy qadriyatlar deyiladi.

Eng oliy qadriyat – inson, uning faoliyati, turmush tarzi, xatti-harakati, ishonch –e'tiqodi, umr ma'nosi, xulq – odobi bilan bog'liq, shaxsiy qadriyatdir. Ammo, umumbashariy va umuminsoniy qadriyatlar uchun umumiy mezon vazifasini o'taydi. Qadriyatlarning mazmun va tusiga qarab, ijtimoiy yoki salbiy jihatlariga ajratish mumkin. Qadriyatlar, mustaqillik sharoitida, yangicha mazmun kasb etib, poklanib, takomillashib bormoqda. Qadriyatlar milliy isitirlol g'oyasi va mafkurasi talabalari bilan uyg'unlashib, komil insonni tarbiyalashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi”.

Taniqli faylasuf olim J.Tulyenov fikricha «Qadriyatlar deyilganda inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan, millat, elat va ijtimoiy guruhlarining manfaatlari va maqsadlariga xizmat qiladigan tabiat va jamiyat hodisalari majmui tushunilmog'i lozim». Qadriyatlar amal qilish doirasiga ko'ra milliy, mintaqaviy va umuminsoniy turlarga bo'linadi.

Milliy qadriyatlar murakkab ijtimoiy - ruhiy hodisa bo'lib, u millatning tili, madaniyati, tarixi, urf-odatlarini, an'analarini, jamiki moddiy va ma'naviy boyliklarini, iqtisodiy, ijtimoiy- siyosiy hayotining barcha tomonlarini qamrab oladi.

Bu sohada olib borilgan ko'p yillik ilmiy izlanishlarimiz milliy qadriyatlar o'zbek xalqining ma'naviy sifatlarini, moddiy boyliklarini hamda ijtimoiy-siyosiy an'analarini qamrab oladi deb xulosa chiqarishimizga imkon berdi.

Milliy qadriyatlar – muayyan bir millat, elat va xalq hayoti, turmush tarzi, ularning o'tmishi, kelajagi va yashayotgan ijtimoiy muhiti bilan bog'liqdir deyib falsafa bo'yicha qomusiy lug'atda ta'rif byerib o'tilgan

Shundan kelib chiqqan holda milliy-ma'naviy qadriyatlar zamirida insoniy fazilatlarining singdirilishi, bugungi kun yosh avlodii ertangi kunda komil inson sifatida faoliyat yuritishiga shart – sharoitlar yaratadi.

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov “Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch” kitobida Insonga quyidagicha tar'rif beradi: “Inson o'z timsolida ham moddiy, ham ma'naviy xususiyat va alomatlarini mujassam etgan noyob xilqat, Yaratganning buyuk va sirli mo'jizasidir. Shuning uchun ham uning ichki dunyosi, unga ato etilgan fazilat va xislatlarni oxirigacha anglash, tushunishning o'zi o'ta murakkab bir masala. Mana shunday qarash va fikrlarni umumlashtirib, insonga xos orzu-intilishlarni ro'yobga chiqarish, uning ongli hayot kechirishi uchun zarur bo'lgan moddiy va ma'naviy olamni bamosoli parvoz qilayotgan qushning ikki qanotiga qiyoslasak, o'ylaymanki, o'rinli bo'ladi. Qachonki ana shu ikki muhim omil o'zaro uyg'unlashsa, tom ma'nodagi qo'sh qanotga aylansa, shundagina inson, davlat va jamiyat hayotida o'sish-o'zgarish, yuksalish jarayonlari sodir bo'ladi” Insoniylik nasliga xos barcha genetik xus-yatlar, axloqiy normalar, uning faoliyatini boshqaruvchi xislatlar ajdodlardan avlodlarga uzatiladi.

Boshqa tirik mavjudotlardan insoniylikning tub farqini ko'rsatadigan xususi- yatlardan yana biri uning o'z amaliy faoliyatini tartibga sola bilishidir. Bu holat insoniylikning insoniyligini belgilovchi eng muhim xususiyat belgisidir.

Shuningdek, insoniylikning o'z turmushi uchun zarur bo'lgan moddiy va ma'naviy boyliklarni ishlab chiqarish malakasiga ega ekani ham uning ustuvor xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Milliy-ma'naviy qadriyatlarni maktabgacha yoshdagi bolalarga o'rganish chog'ida tabiat bilan bog'liq mavzularga ham ko'proq to'xtalib o'tishga to'g'ri keladi, chunki bu mavzular orqali biz bolalarni tabiatni sevishtirishga o'rgatib boramiz. Ota-bobolarimiz tabiatning har bir giyohini behudaga ishlatmaganlar. Agar unday foydalanish zaruriyati to'g'ri bo'lsa eng avvalo ularni ko'paytirishga harakat qilib so'ngra esa ulardan foydalanganlar. Bu borada Sohibqiron Amir Temur ham o'z «Tuzuklar»ida «Bitta ko'chat kestirsam o'nta ko'chat o'tqazdim», -deb o'z fuqorolarini tabiatga nisbatan mehr-muhabbatli bo'lishga chaqirganlar. Ota-bobolardan bizlarga me'ros sifatida yetib kelgan.

Mehnat tufayli insoniylik o'zi yashayotgan tabiiy muhitni o'zgartiradi, moddiy va ma'naviy boyliklar yaratadi, o'zini takomillashtiradi. Insoniylik organizmining sof fiziologik funksiyalari, qo'l va oyoqlarning, bosh va yuzning, tog'aylar, paylar, suyak va muskullarning rivojlanishi ham bevosita jismoniy mehnat va aqliy faoliyat bilan bog'liq. Bundan tashqari, mehnat insoniylikning ma'naviy, maddiy rivoji uchun ham asosiy shart-sharoit bo'lib xizmat qiladi.

Mehnat tufayli insoniylik tabiatga ta'sir etadi, mehnat qurollari yasab, ularni uzluksiz takomillashtirib boradi. Oilaviy munosabatlar va ma'naviy-axloqiy normalar insoniylik uchun eng muhim xususiyatlardan biridir. Oila va ma'naviyat odamning ijtimoiy -tarixiy mavjudot bo'lib shakllanganidan dalolat berardi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni milliy qadriyatlardan foydalanishda insoniy fazilatlarining ahamiyati haqida soʻz borar ekan Toshkent Kimyo-Texnologiya Instituti “Ijtimoiy-siyosiy fanlar” kafedrasida oʻqituvchisi Boʻriyev Mansur Rahmatullayevichning “Milliy mentalimizda kechayotgan transformatsion jarayonlarda milliy tarbiyaning oʻrni” mavzusidagi maqolasida yoshlarni milliylik roʻhida tarbiyalashda, milliy qadriyalar, milliy urf-odatlar haqida yozib oʻtgan.

Muallif oʻz maqolasida Oʻzbekiston Respublikasining birinchi prezidenti I.A.Karimovning “Yuksak maʼnaviyat yengilmas kuch” asaridagi durdona fikrini keltirib oʻtgan “Agarki mendan hozirgi kunda maʼnaviyatimizni asrash uchun nima qilish lozim va unga tahdid soladigan hurujlarga nimani qarshi qoʻyish kerak deb soʻrasa, men avvalambor shu yurtda yashayotgan har qaysi inson oʻzligini anglash, qadimiy tariximiz va boy madaniyatimiz, ulugʻajdodlarimizning merosini chuqurroq oʻzlashtirish, bugungi tez oʻzgarayotgan hayot voqeeligiga ongli qarab, mustaqil fikrlashi va diyorimizdagi barcha oʻzgarishlarga daxldorlik tuygʻusi bilan yashash zarur deb javob bergan boʻlardim” deb yozgan edi. Samarqand davlat universiteti pfd dotsent SH.Z.Toylovaning “Maktabgacha taʼlim tizimini rivojlantirishda ilmiy-amaliy innovatsiyalarning pedagogik ahamiyati” xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyaga bergan “Maktabgacha taʼlimda maʼnaviy qadriyatlarimizning oʻziga hos xususiyatlari” nomli maqolasida milliy qadriyatlar haqida yozilgan boʻlib, unda qadriyatlar taxlili, naqlar rivoyatlar, afsona, hikoyatlar, dostonlar, yaʼni xalq oʻgʻzaki ijodi namunalariga borib tarqlishini nazarda tutgan.

Oʻzbek xalqi dostoni, Alpomishdagi muhabbat va doʻstlik, Tumaris va Shiroq afsonasidagi vatanparvarlik haqida, Hotamtoy haqidagi ertaklardagi qoʻli ochiqlik, bagʻri kenglik, hokisorlik haqida soʻzlab oʻtgan.

Qadriyatlar mavzusi diniy dunyoqarashlar va ularning ularning eng qadimgi shakllarida oʻz aksini topganligini, diniy kitoblarda asosiy maʼnolari qadriyatlar haqida yozilganidir.

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti “Boshlangʻich taʼlim kafedrasida” p.f.n dotsent N.R.Ashurov “Milliy qadriyatlardan foydalanishning oʻziga hos jihatlari” maqolasida qadriyatlarni uch guruhga ajratib oʻtgan.

1. Umuminsoniy (mustaqillik, doʻstlik, vatanparvarlik);
2. Mintaqaviy (mehmondoʻstlik, sahovatlilik, bolajonlik);
3. Milliy (maʼnaviy, moddiy).

Har bir xalqning tarixiy oʻtmishi, urf-odatlarini, mehnat tajribalari yigʻinlari turli anʼanalar koʻrinishida namayon boʻladi.

Xalqimizning milliy qadriyatlardan “Navroʻz”, “Beshik toʻyi”, “Xashar” va boshqa marosimlarni bilmagan oʻzbek boʻlmasa kerak.

Insoniy fazilatlarini milliy-maʼnaviy qadriyatlarni maktabgacha yoshdagi bolalar ongiga singdirish oʻziga xos har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. Maktabgacha yoshdagi

bolalarga ota-bobolarimiz hikmatlarini yetkazishda matnlar mag‘zini, mazmunini to‘g‘ri yetkazib berish kerak. Misol uchun: Sohibqiron Amir Temurning «Bitta ko‘chat kestirsam o‘nta ko‘chat o‘tqazdim», - degan fikrini maktabgacha yoshdagi bolalarga singdirishni o‘ziga xos yondashuv talab qilinadi. Buning uchun maktabgacha yoshdagi bolalar uchun “Ilk qadam” o‘quv dasturi berilib o‘tilgan. Tabiat va jamiyatga bo‘lgan ongli yondashuv orqali maktabgacha yoshdagi bolalarga biz insoniy fazilatlarni tarkib toptirib boramiz. Bizni qurshab turgan olamni asrab – avaylash, boy milliy ma’naviy merosimizni avlodlarga yetkazish uchun ota - bobolarimiz e‘tiqodini bilish, tajribasini qunt bilan egallash kerak bo‘ladi. Buni amalga oshirishda maktabgacha yoshdagi bolalarga chuqur bilim va mahoratni egallagan bo‘lishi kerak.

Bizga ma’lumki ta’lim-tarbiya jarayonlarining ajralmasligiga tayanib, ulug‘ allomalarimiz hayoti va faoliyatini, milliy qadriyatlarning bebaho qirralari sifatida o‘rganish orqali bolajonlarni yuksak madaniyatli, o‘z Vataniga, kasbiga sadoqatli inson qilib tarbiyalash zaruriyati tug‘iladi. Bunga bugungi kunda ijtimoiy asoslarimiz to‘laligicha yetadi va bu yo‘nalishdagi ishlarni amalga oshirishiga Respublikamiz hukumati tomonidan keng imkoniyatlar yaratib byerilgan. Misol uchun: “Ilk qadam” o‘quv dasturi asosida ishlab chiqilgan qo‘llanmalarda milliy-ma’naviy qadriyatlarimizga ta’luqli bo‘lgan manbalar juda ko‘p. Maktabgacha yoshdagi bolajonlarda insoniy fazilatlarni tarkib toptirishda shak – shubxasiz milliy-ma’naviy qadriyatlar yetakchi o‘rinlarni egallaydi. Shuning uchun ham insoniy fazilatlarni tarkib toptirishning ijtimoiy asoslariga to‘xtalib o‘tdim:

- ota-bobolarimizning tarbiya tizimi;
- xalq og‘zaki ijodi;
- qadimgi yozma manbalar;
- xalq haraktli o‘yinlari;
- xalq hunarmandchilik sa’nati;
- tabiatga ongli yondashuv;
- o‘zbek xalq og‘zaki ijodi;
- siymolar faoliyati;
- xalq xunarmandchiligi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni yetuk shaxs qilib tarbiyalashda:

- buyuk siymolarning ibratli hayot yo‘li;
- muqaddas manbalar;
- ertaklar;
- topishmoqlar;
- rivoyatlar;
- masallar;
- oila tarbiyasi;

- tarbiyachining bu boradagi ishlari;
- mahalla tizimi;
- kattalarning o‘zaro munosabatlari;
- do‘stlar davrasi;
- ijtimoiy real hayot muxim rol o‘ynaydi;
- odobli bo‘lishga intilish xissi;
- insoniy fazilatlarni o‘zlashtirishga bo‘lgan ehtiyoj;
- salom-alikning mohiyatini bilish va unga amal qilish;
- mehr va muruvatli bo‘lishning afzalliklarini his etish;
- izzat-hurmat ko‘rsata olish uquviga ega bo‘lish;
- saranjom-sarishtalikka rioya qilish;
- o‘z mulki va davlat mulkiga munosabat bildirish;
- savob va gunoh so‘zlarining lug‘aviy ma’nosini bilish va amaliyotda ularga e’tibor qilish;

XULOSA

Maktabgacha yoshdagi bolalarga milliy qadriyat haqida tushuntirar ekanmiz o‘zbek milliy bayramlari, urf-odatlari, to‘y-marosimlari, milliy kiyimlari, folklori, milliy taomlari haqida tanishtirib o‘tishimiz kerak. Bolajonlar bevosita bayramlar va toylarda ishtirok etadi ularda sodir bolayotgan jarayonlarni kuzatib o‘sadi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ham o‘tkaziladigan tadbirlarda o‘z obrazlarida namayon etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. I.A. Karimov “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch”
2. Falsafa qomusiy lug‘at “O‘zbekiston Faylasuflar milliy jamiyati nashiriyoti ” shaqrc nashiriyoti-manba Aksiyadorlik kompaniyasi bosh taxririya Tashkent 2004, www.zio.com kutubxonasi 446 bet.
3. “Milliy tarbiya va oila ma’naviy salohiyati rivojlanishinig pedagogik-psixologik masalalari” ilmiy-amaliy konferensiya Denov 2020 (13-16 bet)
4. Maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirishda ilmiy-amaliy innovatsiyalarning pedagogik ahamiyati” xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. 2020 yil 11-12 noyabr Samarqand, O‘zbekiston
5. Darmonjon, K., & Dilfuza, K. (2021). The peculiarities of storage of museum objects. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 9(10), 570-575.
6. Yodgorkhon, I., Ulugbek, Y., Lobar, M., Mansur, K., Nurbek, K., & Fakhridin, A. (2021). Advantages of International Economy. *Annals of the Romanian Society for Cell Biology*, 5188-5199.
7. Kuryazova, D. (2022). ISSUES OF APPLYING THE GLOBAL PROBLEMS IN THE SOCIETY TO PUBLIC IN THE MUSEUM WORK. *EPRA International Journal of Research and Development (IJRD)*, 7(6), 18-21.

8. Ruzmatovich, K. M. (2020). The problems of assessing the competition of commercial banks through the index lerner. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 10(3), 142-150.

9. Курязова, Д. Т. (2018). РОЛЬ НАУЧНЫХ ОБЩЕСТВ В КОЛЛЕКЦИИ И ИССЛЕДОВАНИИ ТУРКЕСТАНСКОГО КУЛЬТУРНОГО НАСЛЕДИЯ В 1867-1916 ГГ. *Theoretical & Applied Science*, (2), 60-63.

10. Eshmirzaev, A. P., Qulmetov, M. Q., Sharipov, J. S., & Eshonqulova, M. A. (2019). IMPROVING THE QUALITY OF COCOONS GROWN IN DIFFERENT SEASONS AND METHODS BASED ON INNOVATIVE IDEAS AND TECHNOLOGIES. *Textile Journal of Uzbekistan*, 3(1), 79-82.